



<https://interscience.uz/>

SJIF: 3,546 (2020)

2022/№ 6

ТАЪЛИМ ВА
ИННОВАЦИОН
ТАДҚИҚОТЛАР

ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH

Муассис: Бухоро давлат университети Фан ва таълим МЎЖ Бош муҳаррир: Маъмуров Баҳодир Бахшуллаевич Жамоатчилик кенгаши раиси: Хамидов Обиджон Хафизович, Бухоро давлат университети ректори Таҳририят кенгаши раиси: Махмудов Мале Хасанович Масъул котиб: Акрамова Гулбахор Ренатовна Техник муҳаррир: Давронов Исмоил Эргашевич Таҳририят манзили: Бухоро шаҳар, К.Муртазоев кўчаси, 16-уй Телефон: +998(90)744-00-22 E-mail: eijurnal2020@gmail.com Журналнинг электрон сайти: www.interscience.uz Журнал ОАК Раёсатининг 2021 йил 30 сентябрдаги 306/6-сон Қарори билан ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ, ФИЛОЛОГИЯ, ТАРИХ ФАНЛАРИ бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари юзасидан асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига кiritилган Босишга рухсат этилди: 28.02.2022 й. Қогоз бичими 60x84 1/8. 6/т.12,5. Буюртма рақами 12 «FAN VA TA'LIM» нашриётида чоп этилди. Бухоро шаҳар Журнал 28.07.2021 йилда 9305 рақами билан Ўзбекистон Омма- вий ахборот воситалари давлат рўйхатидан ўтган Журнал 2020 йилда ташкил топди ва 2 ойда 1 марта чоп этилди. 2021 йил ноябрь ойидан бошлаб хар ойда 1 марта ўзбек, рус ва инглиз тилларида чоп этилади «Таълим ва инновацион тадқиқотлар» халқаро илмий-ме- тодик журналидан кўчириб бериш таҳририятнинг розилиги билан амалга оширилади Мақолада келтирилган фактларнинг тўғрилиги учун муаллиф масъул	10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
	Бегалиев Ш. Ю., Маматова З. Способы презентации пассивных конструкций английского языка	7
	Насруллаева Г. Шавкат Раҳмон шеърятда антропоморфик метафоралар	16
	Газиёва М. М. Новербал воситалар таснифига оид концептуал структуралар	20
	Mirzayeva M. A., Yusupova M. A. The relationship of emotional and cognitive components in the process of teaching a foreign language in the primary grade	26
	13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
	Муминова Л., Шорахмедова С. Ривожланишида нуқсонли бўлган болалар ва ўсмирларга ҳозирги замон логопедик ёрдамни ташкил этиш: муаммолар ва ечимлар	33
	Мусаев Ж. П. Ўқувчиларда мустақил фикрлаш компетенциясини ривожлан- тиришининг ижтимоий педагогик ва психологик омиллари	40
	Магруппов А. М. Система интеграции стратегического и функционального менеджмента в системе высшего образования	49
	Ҳакимова М. Ҳ. Мактабгача ва бошланғич таълим жараёнида узвийликни таъмин- лашнинг методик имкониятлари	56
	Холмуродов А. Умумий ўрта таълим педагог кадрларининг малакасини ошириш механизмлари	62
	Шокирова Ш. Д. Комплекс реабилитация жараёнида ринолалияли болалар билан логопедик ишни ташкил этиш босқичлари	67
	Ражабова Г.С. Аль – Хорезми - великий математик и основатель алгоритма	74
	Давронов Н. И. Қадриятли ёндашув асосида бошланғич синф ўқувчилари билан олиб бориладиган дарсдан ташқари жисмоний тарбия ва спорт фаолияти шакллари	81

Бердиева Г. Ш. Фаолиятли ёндошув – ўқувчиларда кадриятли мулоқот маданиятини шакллантириш омили сифатида	86
Исмаилов А. А. Ўқувчиларнинг таълимдаги ютуқларини баҳолаш тизимини халқаро талаблар асосида такомиллаштиришнинг назарий ва институционал асослари	92
Эгамбердиева Н. М., Ходжаёрова Б. А. Ўқувчи-ёшларда креативликни ривожлантиришнинг назарий-методологик асослари	104
Джурасева М. Ҳиссий-иродавий сифатларнинг педагогик-психологик тавсифи	111
Ҳамдамова Н. М. Ўқувчиларнинг техник ижодкорлигини ривожлантиришда муқобил энергия манбалари қурилмаларидан фойдаланиш	115
Ибрагимов А. А. Ўқитувчиларнинг касбий билимларини ривожлантиришда муаммога асосланган ўқитиш ёндашувининг имкониятлари	120
Муҳиддинова Н. Мактабгача ёшдаги болаларни жисмоний машқлар ёрдамида интеллектуал ривожлантириш зарурияти ва муаммолари	126
Ўринов У. А. Техника таълим муассасаларида талабаларни касбий фаолиятга тайёргарлигини ривожлантириш	133
Нуруллаев А. Р. Ўқувчиларда чидамлилиқ жисмоний сифатни ривожлантиришнинг ўзига хос жиҳатлари	139
Мамадалиев Қ. М. Ёшларни жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари орқали соғломлаштиришнинг аҳамияти	144
Содиқова Ш. М. “Оптик толада ёруғликнинг тарқалиш қонуниятлари” мавзусини ўқитишда муаммоли таълим технологияларидан фойдаланиш	148
Жураев Б. Т. Сомонийлар даврида таълим ва тарбиянинг ўзига хос хусусиятлари	155
Туйчиев А. И. Уйинли воситалар асосида ўқувчиларнинг интизомий кўникмаларини ривожлантириш технологияси	160
Jalilov Z. B., Toyirova D. S. Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirish jarayonining mazmuni	163
Ubaydullayev S., Umarova M. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari	168
To'raxonov F. B. Ixtisoslashgan maktablarda fizikaviy jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beruvchi dasturiy ta'minotlar tahlili	174
Dilova N. G. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida ta'lim jarayonidagi shaxslararo munosabatlarni o'rnatishning pedagogik xususiyatlari	178



Юсупова Д. С. Таълим сифатини ошириш жараёнида ўқитувчининг касбий компетенциясини ривожлантириш омиллари	184
Имамова У. М. Таълимда инновацион технологияларни мақсадли ўйналтириш самарадорлиги. Педагогик инновацияларни амалга ошириш восита ва усуллари	189
Қурбонова Г. Ролли ўйинларнинг гендер бағрикенгликни шакллантиришдаги аҳамияти	194
Гафурова Д. Мактаб ёшдаги мураккаб нуқсонли болаларни ўқитиш ва тарбиялаш муаммолари	198
Iminova M. A. Using the design method in the development of learning activity of primary schoolchildren	204
Sharipova N. N. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ijodiy faoliyat jarayoniga tayyorlashning pedagogik ahamiyati	209
Ashurova Z. M. Zamonaviy ta'lim- tarbiya jarayonida fasilitatorlik qobiliyatining o'rni va ahamiyati	215
Mamajanova G. Kh. Development of students' speech on the basis of a differentiated approach	220
Raxmonova D. N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqa savodxonligini shakllantirish yo'llari	224
19.00.00 – ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
Salaxutdinova M. I., Narzikulova M. B. Iste'molchilarning ta'lim xizmatlari to'g'risidagi tushunchalarga munosabati muammolari	230
Nabiyeva Odina Rafikjonovna Reproktiv yoshdagi ayollarda tug'ruqdan keyinkuzatiladigan ruhiy o'zgarishlar,	238
Саломова Г. Ш. Критическое мышление – когнитивная способность личности	243



Юсупова Д. С. Таълим сифатини ошириш жараёнида ўқитувчининг касбий компетентлигини ривожлантириш омиллари	184
Имамова У. М. Таълимда инновацион технологияларни мақсадли йўналтириш самарадорлиги. Педагогик инновацияларни амалга ошириш восита ва усуллари	189
Қурбонова Г. Ролли ўйинларнинг гендер бағрикенгликни шакллантиришдаги аҳамияти	194
Гафурова Д. Мактаб ёшдаги мураккаб нуксонли болаларни ўқитиш ва тарбиялаш муаммолари	198
Iminova M. A. Using the design method in the development of learning activity of primary schoolchildren	204
Sharipova N. N. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ijodiy faoliyat jarayoniga tayyorlashning pedagogik ahamiyati	209
Ashurova Z. M. Zamonaviy ta'lim- tarbiya jarayonida fasilitatorlik qobiliyatining o'rni va ahamiyati	215
Mamajanova G. Kh. Development of students' speech on the basis of a differentiated approach	220
Raxmonova D. N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqa savodxonligini shakllantirish yo'llari	224
19.00.00 – ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
Salaxutdinova M. I., Narzikulova M. B. Iste'molchilarning ta'lim xizmatlari to'g'risidagi tushunchalarga munosabati muammolari	230
Nabiyeva Odina Rafikjonovna Reproktiv yoshdagi ayollarda tug'ruqdan keyinkuzatiladigan ruhiy o'zgarishlar,	238
Саломова Г. Ш. Критическое мышление – когнитивная способность личности	243

**ZAMONAVIY TA'LIM- TARBIYA JARAYONIDA FASILITATORLIK****QOBILIYATINING O'RNI VA AHAMIYATI**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres>.

Ashurova Zarina Muxitdinovna

BuxDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: maqolada zamonaviy ta'lim - tarbiya jarayoni, unda o'qituvchining fasilitatorlik faoliyati, o'quvchi intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini boyitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalana olish mahorati, kasbiy kompetentlik sifatlarida fasilitatorlik qobiliyatining o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim – tarbiya, fasilitatorlik, intellektual salohiyat, innovatsion ta'lim texnologiyalari, mahorat, kasbiy kompetentlik, fasilitatorlik qobiliyati.

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СПОСОБНОСТЕЙ ФАСИЛИТОРА В ПРОЦЕССЕ
СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

Аннотация: В статье рассматривается процесс современного образования, роль фасилитатора в качествах профессиональной компетентности, умение эффективно использовать инновационные образовательные технологии в обогащении интеллектуального потенциала учащегося, фасилитаторская деятельность педагога.

Ключевые слова: современное образование - образование, фасилитация, интеллектуальный потенциал, инновационные образовательные технологии, навыки, профессиональная компетентность, фасилитация.

**THE ROLE AND IMPORTANCE OF FACILITATING ABILITY IN THE
PROCESS OF MODERN EDUCATION**

Annotation: The article discusses the process of modern education, the role of a facilitator in terms of professional competence, the ability to effectively use innovative educational technologies in enriching the intellectual potential of a student, and the facilitator's activity of a teacher.

Keywords: modern education - education, facilitation, intellectual potential, innovative educational technologies, skills, professional competence, facilitation.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda. Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko'zga tashlanayotganligidir. Globallashuv o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo'ladi.

Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarini qayta

tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida turli ixtisosliklar o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning yangi, innovatsion shakl, metod va vositalari bilan tanishtirish, pedagoglarda kasbiy kompetentlik sifatлари va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat." , -deb ta'kidlagan edi. Zero, yoshlarga zamonaviy o'qitish texnologiyalari asosida ta'lim – tarbiya berish yetuk mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanib, u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni, bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, zamonaviy ta'limda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya berish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o'qituvchilar tarkibi darajasi;
- talabalar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- fanlar natijasi va tahliliga.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quv dasturlari to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o'qitish imkoniyati yaratiladi. YA'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi. Bunda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Bugungi zamonaviy ta'lim "subyekt-subyekt" munosabatlari asosiga qurilgan bo'lib, unda o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga katta e'tibor qaratiladi. O'quvchining mustaqil bilim olish faoliyati samaradorligi pedagogdan turli xildagi maslahatlar tizimini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu sababli xorij tajribasida pedagogik yordamning turli ko'rinishlari takomillashib bordi va bugungi kunda pedagogik faoliyatiga ko'ra bir qancha tushunchalar kelib chiqishiga sabab bo'ldi, jumladan: Fasilitator (ingl. facilitator, lot. facilis – «yengil, qulay» degan ma'noni bildiradi) – fasilitator guruhlarida faoliyatni tashkil etishda ko'maklashadi. U guruhlardagi faoliyatni samarali bo'lishini ta'minlashi, guruhda sog'lom muloqotni o'rnatishi, guruhda ishlash qoidalari va regamentlariga amal qilishni ta'minlashi joiz. Fasilitator guruhda qulay psixologik muhitni yaratadi va faoliyatni samarali bo'lishiga yordam beradi. Ushbu tushuncha mumtoz psixolog Karl Rodgers tomonidan kiritilgan bo'lib, ingliz zabon mamlakatlarining ta'lim muassasalarida keng foydalaniladi. 1989-yildan buyon Xalqaro bosh fasilitatorlar assotsiatsiyasi (The International Association of Facilitators) faoliyat yuritib kelmoqda. Bugungi kunda uning faoliyatida 63 davlatning 1200 a'zosi ishtirok etmoqda. Fasilitator faoliyati turli modellarda uchraydi. Shu o'rinda zamonaviy sharoitda jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohada o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham yangiliklar kiritib borishni jadallashtirmoqda. Jumladan, ta'lim jarayonini tashkil etish shart-sharoitlarning shakl va mexanizmlarini o'zgartirishga ham zarurat tug'ilmoqda. Ayniqsa, mazkur holatni kasbiy ta'lim



sohasida yaqqol kuzatish mumkin. Shu nuqtayi nazardan fasilitatsion yondashuv masalasi pedagogika va psixologiyada tobora qiziqarli xarakter kasb etib bormoqda. Fasilitatsiya – o'quvchiga ijobiy ta'sir etish yo'li bo'lib, guruhda ijobiy muhitni hosil qilish, ta'lim oluvchilarni o'z kuchlariga ishonishlariga erishish va mustaqil faoliyatlarida ularni qo'llab quvvatlashdir. Hozirgi vaqtda fasilitatsiyaning ijtimoiy va pedagogik turlari ajratilib ko'rsatiladi. Ijtimoiy fasilitatsiya ijtimoiy psixologik fenomen hisoblanadi. Ijtimoiy fasilitatsiya lotin tilida – "socialis facilitar" – ijtimoiy qulaylashtirish degan ma'noni anglatadi. Pedagogik fasilitatsiya esa ta'lim oluvchilarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash asosida ta'limning (o'qitish, tarbiya) samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda pedagog tomonidan alohida muloqot usulining kasbiy-pedagogik jarayonda qo'llanilishi natijasida sifat jihatdan rivojlanishga erishiladi. Fasilitatsiyaning yuqorida aytib o'tilgan ikki turini ma'lum shartsharoitlar bog'lab turadi. Ya'ni, fasilitatsiya har qanday faoliyat, shu jumladan pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi, shubhasiz. Fasilitatsiyaning bu ikki turi orasidagi asosiy farq shundaki, ijtimoiy sohada faoliyatni qo'llab-quvvatlashda subyektni xatti-harakatlari asos sifatida xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda esa, fasilitatsiya pedagogning o'quvchilar bilan individual muloqot usuli va ta'lim oluvchi shaxsiga samarali ta'sir etish bilan bevosita bog'liq. Fasilitatsiya deganda eng avvalo, guruhli muammolarni hal etishning samarali texnologiyasi tushuniladi. Fasilitatsiya shunday jarayonni qamrab oladiki, bunda fasilitator barcha guruh a'zolariga ma'qul keladigan, neytral va qaror qabul qilishga haqqi yo'q, ya'ni u guruhli muammolarni hal etishga ko'maklashadi. Pedagogik fasilitatsiyaning professional ta'limdagi ahamiyati faol tayyorgarlikka ega mutaxassislarni shakllantirishga o'tish, bitiruvchiga oid standart bo'lmagan xulosalarni qabul qilish va mustaqil tahlil etish qobiliyatiga ega shaxsni shakllantirishda yorqin namoyon bo'ladi. Faol xulqatvordagi ehtiyoj va motivlar ijro etishda emas, balki o'zaro xatti-harakatni mo'ljalga olishda to'liq namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra o'qituvchining vazifasi o'quvchilarni hamkorlikda to'g'ri mo'ljalga olishlarini ta'minlash, ular bilan bir qator boshqaruv funksiyalarini bo'lishishi, ya'ni ularni fanga nisbatan chuqur qiziqishlarini uyg'otish maqsadida sharoitlar yaratish va haqiqiy mazmunga ega o'quv motivlarini paydo qilishdir. Pedagogik fasilitatsiya – bu yuqori sifatga ega bo'lgan, amaliyotdagi zamonaviy talablarga mos keluvchi mutaxassislarni o'qitish darajasidir. O'quvchida qancha ko'p savol tug'ilsa, shuncha ko'p bilim egallaydi, bunda uning o'quv jarayonidagi faolligi ham nazarda tutiladi. Materialning har qanday emotsional va mantiqiy mazmunga ega bo'lishiga qaramay, agar o'quvchilar sust tinglovchilar bo'lsalar faqatgina ma'ruzada qatnashib, ma'ruza materialini va mazmunini avtomatik ko'chirib oladilar, xolos. Fasilitatsiyali ta'limda o'qituvchi dogmatik metodlar va usullarni emas, balki zarur ma'lumotlarni ijodiy egallash, fikr yuritishni shakllantirish, ma'lum materialdagi yangi muammolarni topish, imkoniga ega bo'ladilar. Bu jarayonda o'qituvchi shunday pozitsiyaga ega bo'ladiki, bunda "o'zimas" balki boshqa o'quvchilar bilan "birgalikda" va "amaliyotda mavjud muammolarni bilmaslik", ya'ni kurs davomida o'quvchilar tomonidan ikkilanishlarga sabab bo'lishi haqidagi ayblovdan qo'rqqanligi kerak. Shu tarzda u tadqiqotchi sifatida o'quv jarayonida o'z rolini yo'qotmaydi, o'quv dasturiga tegishli barcha savollarga javob beruvchi dogmatik-pedagog niqobiga o'ranmaydi. Bularning barchasi o'quvchilarni har qanday sharoitda qiziquvchanliklarini va faol anglashlarini va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini tezlashtirib beradi. Pedagogik fasilitatsiya konsepsiyasi bir qator sharoitlarni yaratishni amalga oshiradi.

Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) o'quvchilar uchun o'qishning ahamiyatli bo'lishi;
- b) o'qituvchining raqobatchiligi;
- v) psixologik xavfsizlik va psixologik erkinlik.

Faqatgina o'quvchi uchun ahamiyatli ta'limgina samarali hisoblanib, oddiygina bilimlarni o'zlashtirish emas, balki o'quvchining ichki hissiy-kognitiv tajribasini o'zgarishiga sabab bo'ladi. O'qituvchining raqobatchiligi shunda namoyon bo'ladiki, u boshqa odamlarga, o'quvchilarga

nisbatan o'z munosabatini angelaydi, ya'ni birga ishlaydi, xususan o'zaroharakatlarni amaliy oshiradi. O'quvchilarni qanday vaziyatda bo'lishiga qarab, o'zining haqiqiy munosabatini tushunib qabul qila oladi. Bu orqali o'qituvchi ta'lim oluvchilar bilan ochiq munosabatda bo'lish imkoniga ega bo'ladi. Fasilitatsiya jarayonidagi psixologik xavfsizlik shaxsni qadriyat ekanligini tushunib yetish va tashqi baholash mavjud bo'lmagan sharoitni yaratib berish olishda namoyon bo'ladi. Psixologik mustaqillik o'quvchilarni kreativligini va ularning o'zlarini ifoda eta olish xususiyatini shakllantirishni ta'minlaydi. Fasilitatsiya fikrlarni, hissiyotlar va xolatlarni ochilishiga imkon beradi. Bunda u samimiy ishonch, kutilmagan obraz uyg'unligi, ijodiy bo'lgan tushunish va anglashni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonidagi sharoitda fasilitatsiyani to'g'ri tashkillashtirishga rioya etish, quyidagi sifatlarni shakllanishiga turtki bo'ladi.

Masalan, mustaqillik, faol anglash, kasbni egallashga yo'nalganlik va boshqalar. Bularning barchasi kelajakda o'quvchilarni yetakchi mutaxassis bo'lishlarida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi-fasilitator guruhni hamkorlikda ishlash jarayonini qulaylashtirish hisobiga ta'limni samarasini oshiradi. Shunga ko'ra ichki guruh o'zaroharakatning shakli va usullari muhimdir: ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan qanday gaplashayotganliklari, muammoni umumiy tushunishlari, nizolarni hal qilib to'g'ri xulosani qabul qilishlari kerak bo'ladi. Fasilitatsiya faoliyatiga asoslangan o'zaroharakat qobiliyatini rivojlanishi – pedagogik ta'limdagi pedagogik jarayonning dolzarb maqsadlaridan bo'lib, fasilitatsiya shaxsning mavjudligini, uni potensial imkoniyatlarini, jamiyatda shaxs birligini ta'minlaydi. Fasilitatsiyaga qobiliyatli bo'lish – bu shunday anglash sifatiki, shaxs bo'lib yetishish uchun ruhiy yetuklik, emotsional barqarorlik, o'z dunyosi bilan yangi ruhiy-amaliy birlashishi, yaxlitlik va bir xil o'xshashlik sifatlariga ega bo'lishdir.

Fasilitatsiya faoliyatiga asoslangan o'zaroharakat qobiliyatining bo'lishi o'zida quyidagilarni tarkib toptiradi:

- empatiya;
- qabul qila olish;
- qadriyatli o'z-o'zini qabul qila olish;
- refleksivlik;
- kreativlik;
- tolerantlik;

- boshqa odamlar bilan chuqur muloqotda bo'lib, muloqot vaqtida yoqimli, psixologik iqlim yaratish kabilar.

Fasilitatsiya haqida so'z ketganda, albatta fasilitator faoliyati e'tiborga loyiqdir. Fasilitator trenerdan farqli o'laroq ekspert hisoblanmaydi. U qatnashuvchilarni o'qitmaydi, aksincha ularga guruhni ishlash uchun maxsus texnologiyalarni taqdim etadi. Fasilitator guruhga yordam beradi, muammolar yechimini topishga harakat qiladi. Fasilitator qatnashuvchilarni ishga yo'naltirib boradi va natijalarni muvofiqlashtirib boradi hamda taqdim etilgan topshiriqlarni qoidaga muvofiq qatnashuvchilar tomonidan bajarilishini kuzatadi. Fasilitator – dars samaradorligini oshirish maqsadida guruhlarda guruh ishini tashkil etuvchi, olib boruvchi shaxs. Mashg'ulotda reglament, norma va mashg'ulot uchun qulay sharoit yaratuvchi. Guruh a'zolarini jipslashtiruvchi, samarali ishlash muhitini yaratuvchidir. Fasilitator – davra suhbatlarini, munozara, mushoira, debat, seminar, treninglarni olib boruvchining yordamchisidir. Uning maqsadi – guruhda guruh a'zolarini qo'llash-quvvatlash, oldida turgan vazifani bajarishga yo'naltirishdir. U guruh a'zolarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishlariga qulay muhit yaratib beruvchi shaxs. Fasilitator guruhlarda o'zaro borayotgan muloqot jarayonini olib boruvchidir.

Bugungi davrda ta'limni yuqori sifat bosqichiga ko'tarishdagi asosiy talablar: bu - yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalar; ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish; zamon bilan hamnafas bo'lish; o'quv jarayoniga fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek, ilg'or uslublarni qo'llashga erishish uchun etishga zarur shart-sharoit yaratish; kasb

